

**ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA MA’NAVIY-AXLOQIY
MUAMMOLAR TALQINI**

Xalmuratova Ogulsaltan Didarovna

*Nukus davlat pedagogika instituti o‘zbek tili
va adabiyoti yo‘nalishi talabasi.*

E-mail: ogulsaltanxalmuratova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada she’riyatda ma’naviy-axloqiy muammolarning badiiy tadqiq qilinishi A.Oripov ijodi misolida o‘rganiladi. Shoir she’rlaridagi umuminsoniy muammolar talqini, ularni badiiy ifodalashdagi turli xil badiiy shakllar hamda ifoda usullari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: badiiy tadqiq, ifoda uslubi, badiiy mahorat, ijodiy indiqiduellik, she’riy san’atlar.

Kirish. Ma’naviy-axloqiy masalalar hamma davrlarda ham badiiy adabiyotning asosiy mavzularini belgilab kelgan. Bugungi kunda ham mazkur masalalar badiiy asarlar mohiyatida aks etib ulardagi konflikt ko‘rinishlari insonning o‘zini-o‘zi yengib o‘tishi, fe‘l-atvoridagi mavjud illatlarini anglab yetishi va ular bilan kurashishi singari ko‘rinishlarda ifoda qilinmoqda Bu esa ijodkorlarimizning butkul diqqat-e’tibori, badiiy nigohi inson qalbiga ko‘chganligidan dalolat beradi. Shu ma’noda, insonning o‘z ko‘nglida kechayotgan hissiyotlari tahlili orqali jamiyat tartiblari va voqelik jarayoniga munosabat bildirish, ularni badiiy-estetik baholash hozirgi badiiy adabiyotning yetakchi tamoyillardan hisoblanadi.

Asosiy qism. Hozirgi she’riyatda mazmun-mohiyatida mahzun o‘ychanlik, mulohazakorlik kuchayib bormoqda. Chunki unda inson psixologiyasini jamiyat, tabiat voqea-hodisalari bilan omuxta badiiy-falsafiy tadqiq etish tamoyili nihoyatda kuchaydi. Inson qalbining o‘ziga xos sirlarini anglashda lirik qahramon hissiy intellektualligi ortdi. Zero, adabiyotshunos N.Rahimjonov ta’kidlaganidek, “badiiy fikrning mo‘jizakorligi shundaki, u shaxs va jamiyat siyrati bilan suvratini bir mag‘izning ikki bo‘lagi sifatida aks ettira olsagina, o‘z davrining bosh qahramoni bo‘lib qoladi. Barcha zamonlarda bo‘lgani singari yaxshi odam ham, yomon odam ham bugungi kun san’atining qahramoni bo‘lishga haqli” [3:11].

Ma’lumki, she’riyat – shoir qalbi, ruhiy kechinmalaridan vujudga kelgan o‘ziga xos olam. Shuning uchun ham o‘quvchi yuksak saviyada yaratilgan she’rlarni o‘qiganda o‘ziga yangi bir dunyoni kashf etadi. Qolaversa, har bir ijodkor, eng avvalo, o‘z xalqining farzandi sifatida uning orzu istaklari, dard va armonlarini turli xil ifodalarda badiiy talqin etadi.

Natijalar va muhokamalar. Abdulla Oripov she’riyatida insonning o‘zini anglashi, uning fazilatu illatlari, diniy e’tiqod, umuman butun murakkabligi badiiy talqin qilinadi. Shoirning “Hikmat sadolari” turkumiga kirgan she’rlarida diniy-

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ma’rifiy masalalar o‘ziga xos tarzda tasvirlanadi. Xususan, “Haj” she’rida shunday satrlar uchraydi:

Necha cho‘llar oshib, daryolar oshib,
Bir kun kirib keldi Makkaga karvon.
Dengizga yetishgan jilg‘adek shoshib,
Ummatlar yo‘l oldi Ka’baga tomon.

Ularning barchasi mo‘ysafid edi,
Asoga tayangan nuroniy boshlar.
Kimdir hayrat bilan ularga dedi,
– Hajga kelmaydimi sizlarning yoshlar? [1:201].

Ushbu satrlardan anglashiladiki, unda shoir Haj safari tasviri orqali inson umri mazmun-mohiyati, e’tiqod va sadoqat tushunchalarini badiiy falsafiy aks ettiradi. Undan ayon bo‘ladiki, ichki ziddiyat xarakter tabiatini belgilaydi, o‘z navbatida ma’naviy-axloqiy fazilat va illatlar badiiy chambarchaslik qonuniyatini muqarrar hodisaga aylantiradi. Aslida izchillik va yaxlitlik bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar, uning poydevorini ichki qarama-qarshiliklar belgilaydi. Hayot va ijod taomillari aloqadorligi aynan ijtimoiy, falsafiy hamda ma’naviy qadriyatlar mezoni uzluksizligiga tayanadi.

She’rning keyingi bandida shoir Haj ziyoratiga kelganlar tilidan “Hajga kelmaydimi sizlarning yoshlar?” - deya berilgan savolga javobga juda katta ma’no yuklagan holda kitobxonni chuqur mushohada yuritishga undaydi.

Ummatlar deyishdi: – Haq yo‘li mushkul,
Aziyat chekkan-ku Payg‘ambarimiz.
Qutlug‘ bu safarga olgan chog‘i yo‘l,
Yosh-yosh yigit edik bizning barimiz [1:201].

Ko‘rinadiki, A.Oripov talqinida inson umri va uning mohiyati hayotiy va badiiy haqiqat uyg‘unligida mohirona aks ettirilgan. Zero, inson yoshlik chog‘ida ko‘p vaqtini behuda o‘tkazganini anglamaydi. Shuningdek, aksariyat hollarda diniy-ma’rifiy ezgu amallarni ham qabul qilish istagidan yiroq bo‘ladi. Shu ma’noda, shoirning xalq donoligini she’rning har bir satriga mahorat bilan joylaganinini kuzatamiz.

Adabiyotshunos olim I.Haqqulov ta’kidlaganidek, “Har bir lirik janr badiiy ijod olamida o‘zining g‘oyaviy-badiiy vazifasi bilan tug‘iladi. Aks holda janr xilma-xilligi to‘g‘risida gap bo‘lishi mumkin emas. Odatda, she’r hayotiy zaruriyat, ma’naviy-ruhiy ehtiyojdan dunyoga keladi. Janr kategoriyasi ana shu ehtiyoj va zaruratning

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

turli tarzda shakllanishi, shaklga munosib mazmun, mazmunga munosib shakl holda ko‘rinishidir” [4:287].

A.Oripovning “Haj daftari” turkumiga kirgan she‘rlarida yuqoridagi ta‘rif o‘z aksini topadi. Shoir ijodida shakl va mazmun mutanosibligi mukammal aks etadi. Mazkur turkumdagi “Farzand” she‘rida ota o‘z farzandi kamoli uchun har qanday holatda ham o‘zidagi ma‘naviy qiynoqlarni yengib o‘tishi tasvirlanadi.

Bir kuni ranjitdi otani farzand,
Ota o‘z uyidan bosh olib ketdi.
Lekin Alloh mehri bo‘lib sarbaland,
Ota Makkatulloh vasliga yetdi...

Ka‘bani sig‘inar ekan keksa chol,
Armonin oshkora aytdi olamga.
Dedi: – Ibodatim bo‘lsa ham uvol,
Faqat saodat ber o‘sha bolamga [1:205].

Ta‘kidlash kerakki, “She‘riyatda inson yuragining sir-asrori aks etadi. Inson yuragining sirli tomoni shundaki, u dunyoga avval boshdanoq zabt etilgan holda keladi. Shuning uchun non deb yig‘lamaydi u, obro‘ deb o‘kinmaydi. Yurak – g‘oyibdan kelib ichimizga o‘rnashgan elchi. U, alaloqibat, o‘sha g‘oyibning irodasiga bo‘ysunadi. She‘riyat esa ichimizdagi elchilarning xos suhbatidir” [2:487]. Shu ma‘noda, A.Oripovning yuqoridagi she‘rlarida butun bashariyatga xos qadriyatlar, inson taqdiri va kamoloti, xarom va halol mohiyati kabi ma‘naviy-ma‘rifiy muammolar diniy-ma‘rifiy tushunchalar bilan ifoda qilanadi.

Xulosa. Abdulla Oripov she‘rlarini kuzatar ekanmiz, ularda inson umrining qaysidir davri badiiy tadqiq qilinadi. Shu ma‘noda mazkur she‘rlar hir bir inosnga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi, asar mazmunidan o‘ziga tegishli xulosa chiqarishga chorlaydi. Shoir she‘riyati o‘zining sermazmunligi, fikrlar teranligi, badiiy ifodaning o‘ziga xosligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir she‘rlarida qaysi mavzu qalamga olinmasin, barchasida butun bashariyatga oid muammolar haqida o‘quvchini hayratga soladigan tarzda badiiy talqin etiladi

Adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2001.
2. Rahimjon Rahmat. Jannat sog‘inchi // O‘zbek adabiy tanqidi tarixi antalogiyasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2011.
3. Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim? // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2001. -№ 6.
4. Haqqulov I. Ijod iqlimi. –Toshkent: Fan, 2009.